

# 2021- yilning yanvar oyida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



## Dastlabki ma'lumotlar

**108,3 %**

O'sish sur'ati

**507,0**  
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

**60,6 %**

Kichik  
tadbirkorlikning  
ulushi

**Xizmatlar  
sohasi**

**64,6 %**

Korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi

**504,2**  
ming so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
xizmatlar

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

## Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **507,0 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **77,1 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,3 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

*(2021- yil yanvar oyida)*

**77,1  
mlrd. so'mga**

Hajmning  
o'sishi

**507,0  
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

**108,3 %**

O'sish sur'ati



3

Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


2021- yil yanvar oyida

## Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm



■ 2020- y. ■ 2021- y.

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **507,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan (**429,9** mlrd. so'm) hajmi **77,1** mlrd. so'mga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020 va 2019- yillarning yanvar oylari o'rtasidagi farqi **112,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>507,0</b>	<b>108,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	22,7	112,1
Moliyaviy xizmatlar	117,6	124,1
Transport xizmatlari	89,0	107,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	73,7	100,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	24,1	103,6
Savdo xizmatlari	156,6	102,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	9,0	99,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	11,7	102,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	7,7	112,6
Ijara xizmatlari	10,4	132,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	8,2	109,2
Shaxsiy xizmatlar	12,5	101,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,6	94,4
Boshqa xizmatlar	17,9	89,3




Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar oyida

## Dastlabki ma'lumotlar


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar oyida ularning ulushi **30,9 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



Yuqori o'sish ijara xizmatlari (**32,7** %), moliyaviy xizmatlar (**24,1** %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**12,6** %), shuningdek aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**12,1**%) da qayd etildi. Xizmatlar sohasining me'morchilik (**5,6** %) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmat (**0,4** %) turlari bo'yicha 2020- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.


## Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

## Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi, % da



2021- yil yanvar oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **61,2** % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar oyida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **61,5** % ni tashkil etdi.



## Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,9** % ni tashkil etdi, bu esa **156,6** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar oyida ularning hajmi **136,8** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **31,8** % iga to'g'ri keldi.

### Savdo xizmatlari

136,8

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

156,6

103,4

O'sish sur'ati, % da

102,7



2020- y. yanvar



2021- y. yanvar

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini koprog'iga, aniqrog'i **83,1 %** ini tashkil etdi.

### Savdo xizmatlari tarkibi

(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**8,7 %**

**83,1 %**

**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**



**8,2 %**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil tegishli davrida chakana savdo ulushi **82,9 %** ga yetdi.

**10**

**Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**

**2021- yil yanvar oyida**

## Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar

(2021- yilning yanvar oyida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **117,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning tegishli oyida ularning hajmi **92,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,2** % ni tashkil etdi

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar oyida ularning ulushi **21,4** % ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **25,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **24,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **140,1** % ga yetgan.




## Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning o'tgan davrida sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** oralig'ida qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yilning yanvar oyida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmining **93,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar oyida)

2021- yilning yanvar oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi **22,7** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yil tegishli davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **112,1 %** ga yetdi.




**Taqqoslash uchun:** 2020- yil mos davrida ushbu xizmat turi hajmi **20,0** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7 %** ga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **119,1 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **96,6 %** ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil mos davrida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,4 %** ga yetdi.

## Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

10,9  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

11,7  
mlrd. so'm

Yanvar  
2020- y.



Yanvar  
2021- y.

2021- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **11,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **2,3** % ni tashkil etdi. 2020- yil tegishli oyiga nisbatan o'sish sur'ati **102,6** % ni tashkil etdi.

109,0 %

o'sish sur'atlari, % da

102,6 %

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar oyida xizmatlar hajmi **10,9** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019 yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **9,0** % darajasida qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

19,0

24,1

2020- y.  
yanvar

2021- y.  
yanvar



O'sish  
sur'ati, % da

106,2


103,6

2020- yil yanvar oyigaga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **5,1** mlrd. so'mga oshdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



2021- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **74,8 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yil yanvar oyida ularning ulushi **73,4 %** ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar  
2020- y.

Yanvar  
2021- y.

6,3  
mlrd. so'm

Xizmatlar  
hajmi

7,7  
mlrd. so'm

110,0 %

o'sish  
sur'ati, % da

112,6 %

1,5 %

Xizmatlar-  
ning jami  
hajmidagi  
ulushi

1,5 %

## Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

504,2  
ming  
so'm

69,2 ming  
so'm

2021- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **504,2** ming so'mga yetdi.

2020- yil tegishli oyiga nisbatan o'sish sur'ati **106,5** % ni tashkil etdi.

106,5 %

**Taqqoslash uchun:** 2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **435,0** ming so'mni tashkil etdi.

O'sish sur'ati

## Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2021- yilning 1- fevral holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

13 125  
birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

117,0 %

1 907  
birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

Ularning umumiy sonidagi ulushi


64,6 %



## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **64,6 %**, sanoat **16,3 %**, qurilish **7,7 %** ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **11,4 %** ga to'g'ri keladi.

### 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat **64,4 %** ni, qurilish **8,4 %** ni, sanoat **16,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,6 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**51,1 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **9,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,5 %** ga teng bo'ldi.




Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,2 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

**Info**


Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021 yilning yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **60,6 %** ni tashkil etdi.


### 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **83,7 %** ga to'g'ri keldi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bolimi.**  
**Tel.: 79-223-63-31**